LOYIHALAŞ TEXNOLOGIYASI VOSITASIDA BÖLAJAK TARBIYAÇILARDA TANQIDIY FIKRLAŞNI RIVOJLANTIRIŞNING METODIK MODELI

Seytmuratova Venera Şimbergenovna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti **öqituvçisi**
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340028

Annotatsiya. Mazkur maqolada loyihalaş texnologiyasi vositasida bölajak tarbiyaçilarda tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişning metodik modeli nazariy-metodik jihatdan asoslangan. Modelning maqsadi, tarkibiy komponentlari, amalga oşiriş bosqiçlari, pedagogik şart-şaroitlari hamda kutilayotgan natijalari yoritilgan. Şuningdek, loyihaviy faoliyat jarayonida bölajak tarbiyaçilarning pedagogik muammolarni tahlil qiliş, axborotni tanqidiy baholaş, muqobil yeçimlarni işlab çiqiş, qarorlarni dalillar asosida argumentlaş va refleksiv baholaş könikmalarini rivojlantiriş imkoniyatlari oçib berilgan. Taklif etilgan metodik model bölajak tarbiyaçilarning kasbiy tayyorgarligida tanqidiy fikrlaşni izçil rivojlantirişga yönaltirilgan.

Kalit sözlar: tanqidiy fikrlaş, bölajak tarbiyaçi, loyihalaş texnologiyasi, metodik model, loyiha asosida ta'lim, kasbiy-pedagogik muammo, argumentatsiya, refleksiya, pedagogik qaror, maktabgaça ta'lim.

Аннотация. В статье теоретически обоснована и разработана методическая модель развития критического мышления будущих воспитателей посредством технологии проектирования. Раскрыты цель и структурные компоненты модели, этапы её реализации, педагогические условия и ожидаемые результаты. Особое внимание уделяется возможностям проектной деятельности в развитии у будущих воспитателей навыков анализа педагогических проблем, критической оценки информации, разработки альтернативных решений, аргументации собственной позиции на основе доказательств и рефлексивной оценки результатов профессиональной деятельности. Предложенная модель направлена на последовательное и целенаправленное развитие критического мышления будущих воспитателей в процессе их профессиональной подготовки.

Ключевые слова: критическое мышление, будущий воспитатель, технология проектирования, методическая модель, проектное обучение, педагогическая проблема, аргументация, рефлексия, педагогическое решение, дошкольное образование.

Abstract. This article theoretically and methodologically substantiates the methodological model for developing critical thinking in future educators through project technology. The model's goal, structural components, implementation stages, pedagogical conditions, and expected results are highlighted. Furthermore, the possibilities for developing future educators' skills in analyzing pedagogical problems, critically evaluating information, developing alternative solutions, arguing decisions based on evidence, and reflexive assessment are revealed during project-based activities. The proposed methodological model is aimed at the consistent development of critical thinking in the professional training of future educators.

Keywords: critical thinking, future educator, design technology, methodological model, project-based learning, professional-pedagogical problem, argumentation, reflection, pedagogical solution, preschool education.

Kiriş

Zamonaviy pedagogik ta'lim oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bölajak mutaxassisni tayyor bilimlarni özlaştiruvçi ijroçi sifatida emas, balki pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qila oladigan, muammoni aniqlaydigan, axborotni tanqidiy baholaydigan, muqobil yeçimlarni işlab çiqadigan va öz qarorini dalillar bilan asoslay oladigan professional şaxs sifatida tayyorlaşdan iborat. Mazkur talab, ayniqsa, maktabgaça ta'lim yönalişida tahsil olayotgan bölajak tarbiyaçilarni kasbiy tayyorlaş jarayonida muhimdir.

Tanqidiy fikrlaş zamonaviy ta'limda faqat axborotni tanqid qiliş yoki mavjud fikrga qarşi çiqiş sifatida tuşunilmaydi. U axborotni tahlil qiliş, dalillarni baholaş, savol qöyiş, muammoning sabablarini aniqlaş, turli nuqtai nazarlarni taqqoslaş, asoslangan xulosaga keliş va qabul qilingan qarorni qayta körib çiqişni qamrab oluvçi murakkab kognitiv-refleksiv jarayondir.

Adabiyot tahlili

Loyens, J.E. van Meerten, L. Sçaap va L. Wijnia muammoli va loyihaviy ta'lim muhitida talabalarni muammo bilan yuzlaştiriş hamda hamkorlikdagi faoliyat tanqidiy fikrlaş jarayonlarini faollaştiriş imkoniyatiga ega ekanligini ta'kidlaydilar [1]. Mualliflarning tizimli şarhida loyiha va muammoga asoslangan ta'limda tanqidiy fikrlaşga ijobiy ta'sirlar kuzatilgani, şu bilan birga, tadqiqotlarda tanqidiy fikrlaş tuşunçasi va uni ölçaş vositalari bir xil talqin qilinmasligi qayd etilgan.

Pedagogik texnologiyani loyihalaştirişda öquv maqsadi va kutilayotgan natijani talabaning aniq faoliyati orqali belgilaş muhim metodik talab hisoblanadi. N.X. Avliyakulov va N.N. Musayeva pedagogik texnologiya negizida aniq qöyilgan maqsadlarga ketma-ket yönaltiriş, yaxlit öquv jarayonini qamrab olgan tezkor qayta aloqa hamda talaba xatti-harakati orqali öqitişni ta'kidlaydilar [2, 44-b.]. Mazkur yondaşuv bölajak tarbiyaçini tayyor axborotni özlaştiruvçi emas, balki pedagogik vaziyatni tahlil qiluvçi, dalillarni qiyoslovçi va asoslangan qaror işlab çiquvçi faol iştirokçi sifatida tayyorlaş zaruratini metodik jihatdan asoslaşga xizmat qiladi.

Maktabgaça ta'limning "Ilk qadam" davlat öquv dasturida ta'lim-tarbiya jarayonini bolaning individual rivojlanişi, faolligi, taşabbuskorligi va kompetensiyalarini qöllab-quvvatlaşga yönaltiriş nazarda tutiladi [3].

Şu sababli mazkur dastur talablarini amaliyotga tatbiq etadigan bölajak tarbiyaçining özi ham pedagogik vaziyatlarni tahlil qiliş, bolaning ehtiyojlarini aniqlaş, faoliyatni loyihalaş va natijalarni refleksiv baholaş könikmalariga ega bölişi zarur.


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bölib, metodik modelni işlab çiqişda tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy, muammoli va refleksiv yondaşuvlarning özaro integratsiyasiga tayanadi.

1-jadvalda metodik modelni işlab çiqişda qöllanilgan tadqiqot metodlari özaro mantiqiy ketma-ketlikda muvofiqlaştirilgan. Har bir metod bölajak tarbiyaçilarda

tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişning muayyan nazariy va metodik vazifasini hal etişga yönaltirilgan.

1-jadval



Tadqiqot jarayonida qöllanilgan metodlarning mantiqiy ketma-ketligi

Metodik modelni işlab çiqişda bölajak tarbiyaçining kelajakdagi kasbiy faoliyati ham hisobga olindi. Bunda loyiha topşiriqlari abstrakt muammolarga emas, maktabgaça ta'lim amaliyotidagi real yoki modellaştirilgan pedagogik vaziyatlarga asoslanişi maqsadga muvofiq deb topildi.


Modelning maqsad va natijalarini aniqlaştirişda talaba faoliyatini kuzatiladigan körsatkiçlar orqali ifodalaş tamoyiliga tayanildi. Avliyakulov va Musayeva öquv maqsadlarini identifikatsiyalaşda talaba xatti-harakatini aks ettiruvçi ajratmoq, hisoblamoq, isbotlamoq, qismlarga ajratmoq, taqqoslamoq va tizimga solmoq kabi faoliyat fe'llaridan foydalanişni tavsiya etadilar [2, 45-b.].

Şu asosda mazkur modelda pedagogik muammoni aniqlaş, axborotni saralaş, manba işonçliligini baholaş, fakt va mulohazani farqlaş, alternativ yeçimlarni qiyoslaş, qarorni argumentlaş hamda refleksiv baholaş kabi aniq operatsiyalar belgilandi.

Darslikda keltirilgan Blum taksonomiyasida öquv maqsadlari biliş, tuşuniş, qöllaş, tahlil, sintez va baholaş darajalarida tizimlaştiriladi [2, 46–48-b.].

Uşbu tasnifning tahlil, sintez va baholaş bosqiçlari bölajak tarbiyaçining pedagogik vaziyatni tarkibiy tahlil qilişi, muqobil yeçimlarni işlab çiqişi, ularni mezonlar asosida qiyoslaşi va asoslangan pedagogik qarorga kelişi bilan mazmunan uyğunlaşadi. Şu sababli metodik modelda tanqidiy fikrlaş bilimni takrorlaşdan köra uni kasbiy-pedagogik muammoni hal etişda tahliliy, konstruktiv va baholovçi faoliyatda qöllaş orqali namoyon böladigan sifat sifatida qaraldi.

@yoshlareduuz



1-rasm. Loyihalaş texnologiyasi vositasida bölajak tarbiyaçilarda tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişning metodik modeli

Natijalar

Loyihalaş texnologiyasi vositasida bölajak tarbiyaçilarda tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişning metodik modeli taklif etildi (1-rasm). Mazkur model maqsadli, metodologik-mazmuniy, texnologik-jarayonli va diagnostik-natijaviy komponentning özaro aloqadorligiga asoslanib, pedagogik şart-şaroitlar, tanqidiy fikrlaş operatsiyalari, loyiha faoliyati bosqiçlari, metod va vositalar, baholaş mezonlari hamda kutilayotgan natijani yagona tizimda aks ettiradi.

Maqsadli komponenti tizim hosil qiluvçi komponent bölib ijtimoiy buyurtma va maqsadni öz içiga oladi. Modelda maqsad loyihalaş texnologiyasi vositasida bölajak tarbiyaçilarda tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişi nazarda tutiladi.

Mazmunli komponenti tanqidiy fikrlaşni rivojlantirişning yondaşuvlari, tamoyillari va pedagogik şart-şaroitlarini belgilaydi. Uşbu komponent bölajak tarbiyaçilarda tanqidiy fikrlaşni rivojlantiriş sifatlarini nazariy jihatdan asoslaydi. Texnologik-jarayonli komponenti loyiha faoliyatining beş bosqiçi, metod va vositalarini birlaştiradi.

Diagnostik-natijaviy komponenti esa kognitiv, analitik, argumentativ, faoliyatli va refleksiv mezonlar asosida rivojlanganlik darajalarini aniqlaş hamda natijalarni qayta aloqa orqali korreksiya qilişni nazarda tutadi.

Muhokama

Işlab çiqilgan modelning muhim jihati tanqidiy fikrlaşni loyiha faoliyatining avtomatik natijasi sifatida emas, balki maxsus taşkil etilgan pedagogik jarayon natijasi sifatida talqin qilişidir. “Ilk qadam” milliy öquv dasturining uçinçi naşrida maktabgaça ta’lim jarayonini bolaga yönaltirilgan, kompetensiyaviy va öyin asosidagi yondaşuvlar asosida taşkil etiş, bolaning har tomonlama rivojlanişini qöllab-quvvatlaş hamda rivojlantiruvçi ta’lim muhitini yaratişga alohida e’tibor qaratilgan [3]. Dasturda bolaning mustaqil fikrlaşi, muammoli vaziyatlarda yeçim izlaş, öz fikr va ğoyalarini ifodalaş kabi faoliyatlarini qöllab-quvvatlaş pedagogik jarayonning muhim yönalişlari sifatida qaraladi. Mazkur talablarni amaliyotda samarali röyobga çiqariş bölajak tarbiyaçidan pedagogik vaziyatni tahlil qiliş, muammoni aniqlaş, muqobil yeçimlarni işlab çiqiş, ularni asoslaş hamda pedagogik faoliyatini refleksiv baholaş könikmalarini talab etadi. Şu sababli bölajak tarbiyaçilarni kasbiy tayyorlaş jarayonining özida tanqidiy fikrlaş, pedagogik muammolarni mustaqil tahlil qiliş va ularning yeçimlarini loyihalaş tajribasini rivojlantiriş muhim ahamiyat kasb etadi.

Avliyakulov va Musayevalarning öquv maqsadlarini talaba faoliyati va kuzatiladigan natijalar orqali aniqlaştiriş haqidagi qaraşlari [2, 44–45-b.] mazkur modelning faoliyatli komponentini asoslaşga imkon beradi.

Xulosa

Tanqidiy fikrlaş bölajak tarbiyaçining kasbiy kompetentligini ta’minlovçi muhim sifat bölib, u pedagogik muammoni aniqlaş, axborotni tanqidiy tahlil qiliş, dalillarni baholaş, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaş, muqobil yeçimlarni işlab çiqiş, qarorni asoslaş va refleksiya qiliş operatsiyalarining integratsiyasida namoyon böladi. Loyihalaş texnologiyasi bölajak tarbiyaçini real yoki modellaştirilgan pedagogik muammolar bilan işlaşga jalb etgani sababli tanqidiy fikrlaşni rivojlantiriş uçun qulay didaktik muhit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Loyens, S. M. M., van Meerten, J. E., Schaap, L., Wijnia, L. Situating Higher-Order, Critical, and Critical-Analytic Thinking in Problem and Project-Based Learning Environments: A Systematic Review. Educational Psychology Review, 2023
2. Avliyakulov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya: Oliy öquv yurtlari uçun darslik. Toşkent: Çölpon NMIU, 2012.
3. Özbekiston Respublikasida maktabgaça ta'limi vazirligining "Ilk qadam" milliy öquv dasturi. Uçinçi naşr. Toşkent, 2026.
4. Karimova U. Maktabgaça yoşdagi bolalarda tanqidiy fikrlaşni şakllantiriş: zamonaviy pedagogik yondaşuvlar va interaktiv metodlar. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya, 2025.
5. Pardayeva G. E. Maktabgaça yoşdagi bolalarda tanqidiy fikrlaş könikmalarini rivojlantiriş. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2026.